

HARBIY XIZMATCHILARINING HARBIY-KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLAR

*O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti,
Qurollanish va otish kafedrasi katta o‘qituvchisi
podpolkovnik Komilov Ma’rufxon Sobirxonovich*

Annotatsiya

Kompetensiya bu barcha insonlarni, shu jumladan harbiy xizmatchilarning ham u yoki bu soxada samarali faoliyat olib boraolish qobilyatini anglatadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi umumqo‘shin fakulteti kursantlarini harbiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari bo‘yicha ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar

kompetensiya, o‘t ochish, kommunikasiya, trenajyor, pedagogika, axborot, qurol-aslaha, ko‘nikma, psixologiya, shaylik, aniqlik, taktik harakat, harbiy atamalar, ong, psixika.

Аннотация

Компетенция – это способность всех людей, включая военнослужащих эффективно выполнять свои обязанности в той или иной области. В данной статье рассматривается о педагогико-психологических основах формирования военно-профессиональных компетенций курсантов и военнослужащих высших военных учебных заведений Министерства обороны Республики Узбекистан.

Ключевые слова

компетенция, открытый огонь, коммуникация, тренажёр, педагогика, информация, оружие, мастерство, психология, готовность, точность, тактическое действие, военные термины, сознание, психика.

Abstract

Competence refers to the ability of all people, including military personnel, to effectively perform their duties in a given area. This article information on the pedagogical and psychological foundations of the formation of military-professional competencies of cadets and military personnel of higher military educational institution of the Ministry of Defense of the Republic of Uzbekistan.

Key words

competence, open fire, communication, training simulator, pedagogics, information, weapons, skill, psychology, readiness, accuracy, operational action, military terms, consciousness, psyche.

Insonning boshqa ehtiyojlari qatori o'z tajribasini avloddan avlodga yetkazish ehtiyoji kishilik jamiyati shakllanishining eng boshlang'ich davridayoq paydo bo'lgan. Shuning uchun ham tarbiya tajribasi avvalambor katta avloddan yosh avlodga hayotiy tajribani berish sifatida belgilandi. Insonlarni rivojlanishi va taraqqiy etishida juda ko'p omillarni ta'siri va roli juda katta, bularga oila, mahalla, atrof muhit va jamiyatning hayotdagi pozitsiyalarini misol qilib olishimiz mumkin. Umumqo'shin fakulteti kursantlari ham oliy ta'limgacha bo'lgan ta'limda yillar davomida avlodlarimiz tomonidan shakllantirilib kelingan ta'lim tizimida belgilangan o'quv jarayonlarida ta'lim tarbiyasi va bilim ko'nikmalarini takomillashtirib o'zlarining ta'lim tarbiyasi va bilim saviyalariga ega bo'lishgan. Umumqo'shin fakulteti kursantlari oliy ta'lim davrida katta hayotga qadam tashlaydi va ularning oldida o'zlari uchun yangi bo'lgan bir qancha egallashi muhim bo'lgan ilg'or tajribalarga asoslangan ta'lim tarbiya jarayonlari asosiy vazifa bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida umumqo'shin fakulteti kursantlarining harbiy-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda pedagoglarni va bo'linma komandirlarining roli katta. Kursantlarning harbiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllanishida ularning axloqiy-ruhiy va pedagogik-psixologik asoslari takomillashtirilishi shart. Buning uchun qo'yida ushbu (kompetensiya, pedagogika, psixologiya) tushunchalariga ma'lumotlar keltirib o'tamiz [1].

Kompetensiya – kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – kursantlarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiya yondashuvga asoslangan ta'lim kursantlarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyaga ega bo'lish, tashabbuskorlik mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lam raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarni yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kashi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida (9+3) o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilanadi.

Ofitser ta'lim-tarbiya borasida qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, nima qilishi, qanday yo'l tutishi, nimalarga e'tibor berishi lozim? Bu va shu kabi boshqa savollarga ma'lum darajada harbiy pedagogika fani javob beradi.

"Harbiy pedagogika" qanday fan, nimani o'rgatadi, degan savolga javob topishdan oldin "pedagogika" fani bilan qisqacha tanishib o'tish lozim.

Pedagogika – insonga ta'lim va berish jarayonining mohiyati, qonuniyatlari, prinsiplari, shakllari va metodlari to'g'risidagi fandır. Pedagogika fani jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. U shaxsni shaylantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida mamlakatning buguni va kelajagi uchun zarur bo'lgan yuksak ma'naviy, axloqiy va kasbiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqloq g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi.

Harbiy pedagogika harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarga ularda doimiy yuksak jangovar tayyorgarlikka ega bo'lishlari, tinchlik davrida va urush sharoitida o'z harbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma'naviy, siyosiy va jangovar sifatlarni, jangovar mahoratni shakllantirish, aqliy va jismoniy kuchlarini rivojlantirish, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Psixologiya – voqyelikning alohida bir sohasi bo'lgan psixik (yoki ruhiy) hayot sohasini o'rganadi. Har kimga ma'lum hodisalar – sezgilarimiz, idrok tasavvurlarimiz, fikr, his, intilishlarimiz va shunga o'xshashlar psixika hodisalari jumlasidandır. Shaxsning psixik yoki individual xususiyatlari deb ataladigan: odamning temperamenti (mijoz), xarakteri (fe'l-atvori), qobiliyat, ehtiyoj, mayl va havaslari ham psixika sohasiga kiradi. Psixika (ruhiy) hodisalarning butun majmuyi odatda psixika degan so'z bilan ataladi.

Psixologiya eng qadimiy fanlardan bo'lib, bundan 2,5 ming yil ilgari jon haqidagi ta'limot sifatida vujudga kelgan. VII-V asrlarda o'tgan qadimgi grek faylasuflarining asarlaridayoq kishining jonli va ruhiy hayoti to'g'risida juda ko'p xilma-xil fikrlar bayon qilinganligini ko'ramiz. Bu masalalar qadimgi Xitoy va qadimgi hind mutafakkirlarining muhokamalarida ham katta o'rin tutadi.

Kishining psixikasi haqidagi muntazam ta'limotni birinchi marta Aristotel (eramizdan oldingi 384-322 yillar) "jon haqida" degan kitobida bayon qilgan. Shu sababli Aristotel alohida fan bo'lgan psixologiyani vujudga keltirgan kishi yoki psixologiya fanining "otasi" hisoblanadi. Uzoq vaqtgacha psixologiya mustaqil fan bo'lmay, falsafa tarkibiga kirib kelgan. Alohida ilmiy fan ma'nosida "psixologiya" termini bo'lmagan. Bu termin XVI asr oxirida paydo bo'lib, XVIII asr o'rtalaridan boshlab hamma ushbu so'zni qo'llay boshlagan. Psixologiya XVIII asrning oxirida va XIX asrning boshlarida mustaqil fan bo'lib shakllangan [1].

Harbiy psixologiya – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalar ichki olami, ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, nazariyadan ko'ra amaliyotga yaqinroq, ya'ni harbiy psixologiya harbiy xizmatchilarning faoliyatlari davomida to'qnash keladigan muammolar, favqulodda jangovar holatlarning ta'siri va bunday vaziyatlardan chiqish kabi muammolarni o'rganadi, tahlil qiladi va hal etadi.

Harbiy psixologiyaning vazifasi – inson ruhiy hayotining asosiy qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Har bir ofitser bu qonuniyatlarni bilishi zarur. Harbiy psixologiyani o'rganish harbiy xizmatchining o'zidan boshqa kishilarni tushunishiga, ularning ruhiy holatlarini hisobga olgan holda ish ko'rishiga, odamlarning ijobiy, salbiy xususiyatlarini, ularga xos bo'lgan individual jihatlarning qay yo'sinda va nima sababdan yuzaga kelishini ko'ra olishga, tevarak-atrofni qurshab olgan boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatishga yordam beradi.

Ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta'sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublarining tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik muammosi yana keskinlashib qoladi. Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatning salbiy axborot-psixologik xurujdan saqlash, qat'iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi [2].

Hozirgi kunda yoshlarning ongiga chetdan kirib kelayotgan har turdagi axborotlar tez sur'atlarda ta'sir etmoqda, sababi, ayrim yoshlar yengil yelpi axborotlarga berilib, ularni qabul qilish ham ason kechadi. Erkin shaxs va ozod kishilik jamoasi bo'lgan fuqarolik jamiyati sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xos tizimlari shakllanmog'i lozim. Bu bevosita OAV faoliyati va unga xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqlovchi va tarqatuvchi xodimlarning siyosiy saviyasiga, kasb mahoratiga eng muhimi fuqarolik pozitsiyasiga jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usiga bog'liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning bosh mezonini va asosiy tayanchi – millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'usi.

Hozirgi dunyo taraqqiyotining qonuniyatlari va globallashtirish jarayonlarining tahlili dunyo shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar bo'lishdan darak beruvchi "global axborot jamiyati" ostonasida turganligini ko'rsatmoqda. Bu ham axborot makonida va OAV laridan turli kuchlarning siyosiy va nosiyosiy vazifalarni hal qilish uchun odatda tushuniladigan "kuch ishlatish" yo'li bilan emas, balki boshqacha yo'l bilan foydalanishga imkon beradi. Shunday qilib, globallashtirish sharoitida yoshlarimizning yot g'oyalarga ergashib ketishi, ularga qing'ir ishlarning jiddiy oqibatlari, javobgarligi va huquqiy asoslari haqida mukammal tushunchalar berish, bu borada targ'ibot ishlarini yanada kengroq olib borishimiz lozim [3].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda kursantlarning harbiy-kasbiy kompetensiyalarini qo'yidagi yo'nalishlar bo'yicha shakllantirish mumkin:

o'qitish jarayonini takomillashtirish orqali;
bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish orqali;
o'quv materiallar mazmunini takomillashtirish orqali;
vatanparvarlik tarbiyasi va ruhiy holatlarini takomillashtirish orqali.

Kursantlarning harbiy-kasbiy kompetensiyalarini sifatini oshirishda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri bitiruvchilar ega bo'lishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar darajasi va ko'lamini aniqlash va ilmiy asoslashdir.

Ta'lim sohasida har qanday fanni o'qitishda "sifat" darajasini tadqiq etish va qo'llashning asosiy tendensiyalarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganuvchilar bilim sifatining eng faol o'rganilgan tizim ko'rinishi: o'qitish sifati; o'rganuvchilar sifati; ta'lim jarayoni sifati. Kursantlarning harbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishda o'qituvchilarning va bo'linma komandirlarining roli katta, ushbu toifa vakillarining o'z xizmat majburiyatlari sitqidildan ado etilsa ta'lim tarbiya bo'yicha kursantlarning oldiga qo'yilgan vazifalarga erishish imkoniyatlari katta bo'ladi. Bundan tashqari yutimizda olib borilayotgan islohotlar va Prezidentimizning ta'lim tarbiya bo'yicha yaratib berayotgan shart sharoitlar, imkoniyatlar va shaxsan jonbozligi kursantlarning harbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish uchun katta imkoniyat va omil bo'la oladi [4].

Kursantlarning harbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishda dunyo va mintaqadagi vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar, mojarolar, iqtisodiy-ijtimoiy holatlar va shunga o'xshash boshqa hodisalar tahlilini pedagogik-psixologik asoslarini kursantlar ongiga vatanparvarlik ruxida yetkaza olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarining harbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda ta'lim-tarbiya jarayoni asosiy rol o'ynaydi. Bu kurs davomida kursantlar bilimlarini to'plab tizimlashtiradilar, uni amaliyotda samarali qo'llashni o'rganadilar, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha ko'nikmalarni va ta'limni boshqarish qobiliyatini egallaydilar.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, OHTM kursantlarining harbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini takomillashtirishda o'qitish tizimining ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish, kursantlarni vatanparvarlik ruhidagi bilim ko'nikmalarini oshirish, kursantlarga ma'sul bo'lgan barcha toifadagi pedagog ustozlarni, komandir va boshliqlarning ma'suliyatini, jonbozligini va g'amxo'rligini yanada oshirish maqsadga muvofiq [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I. Ivanov, Umumiy psixologiya / P.I.Ivanov, M.Ye. Zufarov – T: O’R oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi // O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti – 2018. – B. 5.
2. Yu.S.Po’latov, Jinoyat-ijroiya (penitensiar) psixologiyasi bo’yicha savol va javoblar / Yu.S.Po’latov, G.U. Axmedova– T: O’R IIV Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurti – 2017. – B. 46.
3. N.Q. Jo’rayev, Zamonaviy psixologiya muammolari / N.Q. Jo’rayev– T: O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti // Talabalar ilmiy konfrensiyasi – 2017. – B. 55.
4. R.S. Yusupov OHTM artilleriya bo’linmalari mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari / R.S.Yusupov – T: Harbiy ta’lim va fanda innovasiyalar // Ilmiy maqola – 2019. – B. 57.
5. R.S. Samarov, Harbiy atamalarning yangi izohli lug’ati / R.S. Samarov [va boshq.] – T.: “InnovatsiyaZiyo”, 2020. - 32 b.